HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Ost-Indiya kompaniyasining Hindistondagi hukmronligi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy Universiteti talabasi
Safarboyeva Dildora Ulug‘bek qizi
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.24163826

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ost-Indiya kompaniyasining tashkil topishi, uning asosiy faoliyati, iqtisodiy va siyosiy ta’siri hamda Britaniya imperiyasining mustamlakachilik siyosatidagi o’rni tahlil qilinadi. Kompaniyaning Hindistondagi faoliyati nafaqat savdo sohasiga, balki mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Maqolada kompaniya tarixining bosqichlari, uning qudratining o‘sishi va tugatilishiga olib kelgan sabablar yoritilgan.
Tayanch so‘zlar: Ost-Indiya kompaniyasi, Hindiston, iqtisodiy va siyosiy vaziyatlar, kapitalizm, bozor munosabatlari, Kalkutta, Britaniya, Lahor, Dehli.

Abstract: This article examines the establishment of the East India Company, its main activities, its economic and political influence, and its role in the colonial policies of the British Empire. The Company's activities in India had a profound impact not only on trade but also on the country's political and social life. The article explores the main stages of the Company's history, the growth of its power, and the factors that led to its dissolution.
Keywords: East India Company, India, economic and political conditions, capitalism, market relations, Calcutta, Britain, Lahore, Delhi.

Аннотация: В статье анализируется создание Ост-Индской компании, основные направления её деятельности, её экономическое и политическое влияние, а также роль в колониальной политике Британской империи. Деятельность Компании в Индии оказала глубокое воздействие не только на торговлю, но и на политическую и общественную жизнь страны. В статье рассматриваются различные этапы истории Компании, процесс укрепления её могущества и факторы, которые в конечном итоге привели к её ликвидации.
Ключевые слова: Ост-Индская компания, Индия, экономические и политические условия, капитализм, рыночные отношения, Калькутта, Великобритания, Лахор, Дели.

Dunyoda mustamlakachilik davrining boshlanishida muhim rol o‘ynagan tashkilotlardan biri bu Ost-Indiya kompaniyasidir. U oddiy savdo shirkatidan boshlangan bo‘lsa-da, qisqa vaqt ichida butun Hindiston yarimoroli taqdirini o‘zgartirgan kuchga aylangan. Kompaniyaning iqtisodiy manfaatlari, siyosiy aralashuvlari va harbiy yurishlari Britaniya imperiyasining kengayishiga asos solgan.

Buyuk Britaniyada Yelizavetta 1 davrida 1600-yil 31-dekabrda asos solingan yirik kompaniyalardan bo‘lgan Ost-Indiya kompaniyasiga asos solindi. Uning asoschilari John Watts va George White bo‘lgan. Kompaniyaning asosiy maqsadi Hindiston va butun Sharq mamlakatlar bilan savdo-sotiqni yo‘lga qo‘yishdan boshlangan1. Keyinchalik harbiy faoliyatni ham yo‘lga qo‘yildi.

1 Roos, Dave “How the East India Company Become the World’s Most Powerful Monopoly”. – 2020. – P 2

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Iqtisodiy jihatdan ko‘plab yutuqlarga erishganligi sababli, Fransiya, Daniya, Portugaliya, Shvetsiya, Prussia, Avstriya kabi davlatlarda ham shunday kompaniyalar tuzildi2. Lekin ulardagi tashkilotlar davlat tadbirkorlari ichidan tashqariga chiqmaganligini ko‘rishimiz mumkin. 1601-1610-yillarda kompaniya Janubi-Sharqiy Osiyoga 3 marotaba savdo ekspeditsiyasini uyushtirdi. Kompaniyaning Hindistondagi faoliyati hukmdor Jahongirshoh davriga to‘g‘ri kelib, 1612-yilda Surat shahrida faktoriya yaratishlariga ruxsat beradi. Xususan, Hindistonda ham o‘z faoliyatini olib borishiga imkon berdi. Hindistondan Buyuk Britaniyaga ipak, ziravorlar, choy, selitra, qalampir kabi mahsulotlarni olib ketishgan3.

Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi XVII asrdayoq Bombeyni egallab, bir nechta mustahkamlangan portlarni barpo qildi. Fransuzlar ham bir nechta dengiz bazalarini yaratdi. Boburiylar Imperiyasi qulaganidan keyin paydo bo‘lgan hind knyazliklari o‘rtasidagi ziddiyatdan foydalanib, ikkala davlat ham ularning ichki ishlariga aralasha boshlaydi. Fransuzlar bilan inglizlar o‘rtasida XVIII asrdayoq urush avj oldi. Ushbu kurashda inglizlar Hindistonning shimoli-sharqi Bengaliyani tortib oldilar. Keyinchalik esa Bengaliya, Bexar va Madras va boshqa bir qator viloyatlarni ham qo‘lga kiritishdi4.

Hindistonda asosan, metallarga ishlov berish, qurolsozlik yaxshi rivojlangan edi. Qirg‘oqbo‘yi hududlarida xuddi yevropaliklardagidek kemalar yasalgan va bunga ehtiyoj ko‘p bo‘lgan. Kompaniya ko‘plab shunday metal buymlarni eksport qilib olib ketgan. Bengaliyadan esa momiq va chiroyli paxtalar olib ketgan. Shunday qilib, bu savdo kompaniyasi o‘z faoliyatini mustamlaka faoliyatga aylantira boshlaydi. Harbiy va ma’muriy sohalarda faolligini ko‘rsatadi. XVIII asrda yirik davlatlardan yana biri Maratxlar davlati bo‘lgan. Inglizlar uchun bu davlat ham bosib olishga qulay edi. Bu haqida 1798-yilda Ost-Indiya kompaniyasi nazorat kengashi raisi lord Dandas shunday deb yozadi: “Baxtimizga na Maratxlar imperiyasi boshlig‘i, na konfederatsiya tarkibiga kiruvchi davlatlardan birortasining rahbari maratxlarni birlashtirish uchun yetarli kuch va vositaga ega emas”5.

Kapital atamasining birinchi marta qo‘llanilishi ham aynan Ost-Indiya kompaniyasida boshlangan. Lekin ingliz kompaniyasi darrov doimiy kapitalga ega bo‘lmagan, birinchi yarim asr davomida u tartibga solinadigan kompaniyalar toifasiga kirgan edi. Shuningdek, bu yerda foyda har bir sayohat yoki sayohatlar seriyasidan keyin aksiyadorlar o‘rtasida qoldiqsiz taqsimlandi. Ingliz kompaniyasi Oliver Kromvel nizomiga ko‘ra va o‘zining ancha muvafaqqiyatli galland hamkasbiga taqlid qilgan holda, faqat 1657-yilda doimiy kapitalga ega firmaga aylandi6. Kompaniyaning asosiy raqiblaridan biri gollandiyaning Sharqiy-Hindiston kompaniyasi edi. Ular Hindistondan ko‘plab ziravorlar olib ketgan. 1612-yilda kompaniyaning qurolli kuchlari Suvali jangida portugallarni jiddiy mag‘lubiyatga uchratadi7. Hindistondagi portugal mulklari tanazzul davriga kirdi. 1647-yilda kompaniya Hindistonda 23 ta savdo nuqtalariga ega bo‘ldi. Hind matolari Yevropada ajoyib talabga

2 Фурсов К. А. Ост-Индские компании: двигатель и тормоз капитализма. – 2016. – С. 30.
3 Tracy, James D. "Dutch and English Trade to the East". The Construction of a Global World, 1400–1800 CE, Part 2, Patterns of Change, edited by The Cambridge World History, Cambridge University Press, 2015, p. 249.
4 Robins, Nick. The Corporation That Changed the World: How the East India Company Shaped the Modern Multinational. 2nd ed., Pluto Press, 2012. P.26.
5 Ergashev Shuhrat.Jahon Tarixi. Toshkent “O‘zbekiston” nashriyoti, 2016, 375-bet.
6 Фурсов К. А. Ост-Индские компании: двигатель и тормоз капитализма. – 2016. – С. 121.
7 К. А. Antonova, G. M. Bongard-Levin, G. G. Kotovskiy. Istoriya Indii, M., 1979. – С. 80.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

ega edi. Choy, don, bo‘yoq, paxta, keyinchalik Bengal afyuni ham eksport qilindi. Dehqonlar ko‘plab soliqlar to‘lashgan8.SINOSKA

Ost-Indiya kompaniyalari tashqi zonalarini jahon kapitalistik tizimiga integratsiyalashuvi va uning periferiyasiga aylantirish vositalari sifatida harakat qilib, kapitalizmda ham mazmun, ham funksiyani to‘plashda asosiy rol o‘ynadi. Yevropa Sharqiy Hindiston Kompaniyasi o‘zlarining rivojlanish mantig‘i bo‘yicha ishladilar. Xususan, bu Yevropa kapitalizmi mantig‘iga faqat dastlabki bosqichlarida to‘g‘ri keladi. Taxminan bir yarim asr davomida bu korporotsiyalar haqiqatdan ham kapitalizm rivojlanishining dvigateli bo‘lib ishladilar, ammo keyinchalik unga tobora ko‘proq to‘sqinlik qila boshladilar. Shunday qilib, Britaniya kompaniyasi, bir tomondan, raqobat mexanizmi orqali kapitalistik sanoatining rivojlanishiga obektiv yordam berdi. Boshqa tomondan, u Yevropada hind hunarmandchiligiga nisbatan komprador sifatida harakat qilib, jumladan, rivojlanishning orqada qolishiga sabab bo‘ldi. Britaniya orollariga eltuvchi asosiy savdo dengiz yo‘llari shakllandi. Kompaniyaning maqsadi Hindistondan tashqarida ham o‘z manfaatlarini yo‘lga qo‘yish edi. Keyinchalik shu maqsadga erishdi hamki Yevropa va Osiyodan qaytayotgan kemalar uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan Muqaddas Yelena orolini qo‘lga kiritadi9. Aynan Britaniya Ost-Indiya kompaniyasi harbiylari Avliyo Yelena orolida surgun qilingan Napaleonni qo‘riqlashgan edi. Britaniyada shunchaki savdo uchun yaratilgan kompaniya keyinchalik butun Yevropada katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Hindistondagi Ost-Indiya kompaniyasi o‘z faoliyatini 1857-yilga olib borgan10.

Kompaniya Hindistonda savdo imkoniyatlarini oshirganligi va kumush bozorini to‘ldirganligi va savdoning o‘sishidan foydalangan to‘quvchilarning shaharlarga ko‘chib o‘tishi jadallashdi. Natijada, paxta bosma matolarining mavjudligi savdogarlarga ularni Angliyada arzon sotishga imkon yaratdi. Natijada jun kiyimning ichki savdosi keskin pasayib ketishiga olib keldi. Parlament fuqarolarni jun kiyim kiyishga majburlash uchun qonunlar yaratish orqali aralashdi va paxtaga import bojlarini oshirdi. Bu dastlab kompaniyaga qarshi norozilikni keltirib chiqardi, ammo oxir-oqibat Angliyada yangi sanoatning rivojlanishiga olib keldi, ya’ni, import qilingan oddiy oq paxtani bo‘yash sanoati yuksaldi. Bu XVII asr global savdosining murakkabliklaridan faqat bitta misol bo‘lsa-da, u shunchaki to‘qimachilik kompaniya uchun muhim tovar bo‘lganligini ko‘rsatadi11.

Barcha asosiy jihatlari bilan Anglo-Hindiston o‘zining britaniyalik ekanligidan faxrlangan. Ahamiyatli jihati shundaki, aloqa vositalari sekin bo‘lgan va odamlar Yevropa bilan hech qanday to‘g‘ridan-to‘g‘ri Hindistonda bir umrni o‘tkazishi mumkin bo‘lgan. XVIII asrda yoki XIX asrning boshlarida Hindistondagi britaniyaliklarning britancha turmush tarzi nafis mehmonlarga g‘alati yoki eskirgan bo‘lib tuyulgan12. Hatto XIX asr boshlarida ko‘p ichish, kalyan chekish, hindistonlik kanizaklarni ochiqdan-ochiq tan olish va qo‘pol xulq-atvorning boshqa turlari urfdan qolgan paytda ham, Hindistondagi jamiyat hali ham nafislikdan mahrum bo‘lib tuyulishgan. Ayniqsa, u o‘z

8 A. Guber, A. Xeyfets. Novaya istoriya stran zarubejnogo Vostoka, M., 1961.- C.48.
9 Robins, Nick. The Corporation That Changed the World: How the East India Company Shaped the Modern Multinational. 2nd ed., Pluto Press, 2012. P.27.
10 Ergashev, Shuhrat.Jahon Tarixi II- Qism. Toshkent, "O‘zbekiston" nashriyoti, 2015, 378-bet.
11 Damian, M. (2017). [The East India Company 1600–1858: A Short History with Documents kitobiga taqriz]. Education About ASIA, 22(3), 70–71.
12 Roos, Dave „How the East India Company Became the World's Most Powerful Monopoly“. History (2020-yil 23-oktyabr).P.107.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

ayollariga munosabatda bo‘lishida, bu holat oshkora nikoh bozorining qo‘pol ko‘rinishlaridan tortib, Emili Eden “ayollarga nisbatan e’tiborsizlik” deb atagan narsagacha bo‘lgan oraliqda namoyon bo‘ldi13.

Ost-Indiya kompaniyasining Hindistondagi faoliyati jahon mustamlakachilik tarixida iqtisodiy manfaatlarning siyosiy hokimiyat bilan birlashib ketishining yorqin namunasi hisoblanadi. Kompaniya dastlab savdo-sotiqni rivojlantirish va katta daromad olish maqsadida tashkil etilgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan Hindistonning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga bevosita aralashuvchi qudratli tuzilmaga aylandi. Kompaniyaning faoliyati natijasida Hindistonda an’anaviy boshqaruv munosabatlari o‘zgardi, yer egaligi va soliq yig‘ish tizimida yangi tabaqalar shakllandi. Kompaniya xodimlarining shaxsiy boylik orttirishga intilishi mahalliy aholi manfaatlariga zid kelgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, Bengaliyada ijara haqi yig‘ish huquqining turli shaxslar qo‘liga o‘tishi natijasida murakkab vositachilik tizimi yuzaga keldi. Bu esa mahalliy aholining iqtisodiy ahvoliga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. 1773-yilda qabul qilingan “Tartibga solish qonuni” kompaniya faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish jarayonini kuchaytirdi14. Kalkuttada general-gubernatorlik lavozimining tashkil etilishi va sud tizimi Britaniya hukumatining Hindistondagi boshqaruv jarayoniga tobora chuqurroq aralashayotganini ko‘rsatdi. Shu tariqa, savdo tashkiloti sifatida faoliyat boshlagan kompaniya asta-sekin siyosiy hokimiyat vositasiga aylandi.

Shuningdek, kompaniyaning diniy siyosati ham mustamlakachilik munosabatlarining murakkab jihatlaridan biri edi. Britaniya cherkovining Hindistondagi faoliyati va evangelistik qarashlarning kuchayishi diniy masalalarning siyosiy boshqaruv bilan bog‘lanishiga olib keldi. Mahalliy hind va musulmon aholining diniy qadriyatlari hamda Britaniya mustamlakachilik siyosati o‘rtasidagi ziddiyatlar qarshilik kayfiyatining kuchayishiga ta’sir ko‘rsatdi15.

Umuman olganda, Ost-Indiya kompaniyasining tarixiy tajribasi iqtisodiy hukmronlikning siyosiy nazoratga aylanishi, mustamlakachilik siyosatining mahalliy jamiyat tuzilishiga ta’siri hamda diniy va ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishini yaqqol namoyon etadi. Kompaniya faoliyatining yakunlanishi esa Britaniya-Hindiston munosabatlarida yangi boshqaruv bosqichining boshlanishiga zamin yaratdi. Demak, Ost-Indiya kompaniyasi tarixini o‘rganish nafaqat Britaniya mustamlakachilik siyosatini, balki Hindiston jamiyatidagi chuqur siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarni anglashda ham muhim ahamiyatga ega. Ost-Indiya kompaniyasi misolida mustamlakachilik faqat harbiy bosib olish emas, balki savdo, moliya, diplomatiya va boshqaruv mexanizmlari orqali amalga oshirilgan murakkab tarixiy jarayon ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

13 69 Eleanor Eden (ed.), Letters from India by Emily Eden, 2 vols (London, 1872), I. 13
14 Barrow I. The East India Company, 1600–1858: A Short History with Documents. – Indianapolis: Hackett Publishing Company, 2017. – 208 p.
15Kaye J. The Administration of the East India Company: A History of Indian Progress. Allahabad: Kitab Mahal, 1966. – P. 97.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. B. Adams. The Laws of Civilizations and Decay. An Essays on History, Nyu-York: Macmillan, 1898. 305p.
2. Barrow I. The East India Company, 1600–1858: A Short History with Documents. – Indianapolis: Hackett Publishing Company, 2017. – 208 p.
3. Eleanor Eden, Letters from India by Emily Eden, 2 vols (London, 1872), I.13
4. Ergashev Sh. Jahon tarixi (Yangi davr 1800–1918 yillar). II qism. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2015. – 560 b.
5. Фурсов К. А. Ост-Индская компания: История великого олигарха // Новое время. – М., 2001. – С. 43.
6. Фурсов К. А. Ост-Индские компании: двигатель и тормоз капитализма // Финансы и бизнес. – 2016. – № 2. – С.130.
7. Gardner B. The East India Company: A History. – London: Rupert Hart-Davis, 1971. – 319 p.
8. Kaye J. The Administration of the East India Company: A History of Indian Progress. Allahabad: Kitab Mahal, 1966. – P.
9. Robins N. The Corporation That Changed the World: How the East India Company Shaped the Modern Multinational. – 2nd ed. – London: Pluto Press, 2012. – 256 p.
10. Roos D. “How the East India Company Became the World's Most Powerful Monopoly”. History.- 2020. – October 23.
11. Tracy J. D. Dutch and English Trade to the East // The Cambridge World History. Vol. 6: The Construction of a Global World, 1400–1800 CE. Part 2: Patterns of Change / ed. by J. H. Bentley et al. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015. – P. 380.